



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUI USTIDAN NAZORAT  
QILISH INSPEKSIYASI BOSHLIG'INING  
BUYRUG'I**

2024-yil 16-dekabr

18-B-son

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yangi tahrirdagi ichki idoraviy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida**

"O'zagroinspeksiya"ning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida faoliyatni yanada takomillashtirish, xodimlarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini hamda huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldaggi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zagroinspeksiya" to'g'risidagi nizomning 17-bandii "j" kichik bandiga asosan,

**B U Y U R A M A N:**

**1. Quyidagilar:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmu ustidan nazorat qilish inspeksiyasining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomalar 5-ilovaga muvofiq;

Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomalar 6-ilovaga muvofiq;

Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomalar 7-ilovaga muvofiq;

Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;

Xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament 10-ilovaga muvofiq;

Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom 11-ilovaga muvofiq;

Xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2.** Inspeksiya boshlig'ining o'rinnbosari, Inspeksiyaning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha (yangi tahrirdagi) ichki idoraviy hujjatlar bilan o'z rahbarligidagi tarkibiy bo'linmalar, xodimlari va ishchi-xizmatchilari tanishtirilishini, ushbu hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlasin va nazorat qilsin.

**3.** Inspeksiyaning hududiy boshqarma boshliqlari va Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi rahbari:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yangi tahrirdagi ichki idoraviy hujjatlar ijro uchun qabul qilinishini ta'minlasin;

xodimlar va ishchi-xizmatchilar tanishtirilishini, ushbu hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlasin va nazorat qilsin;

mazkur buyruq ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi bat afsil axborotni tasdiqlangan hujjatlarni ilova qilgan holda har chorak yakuni bilan Inspeksiyaning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limiga taqdim etilishini ta'minlasin.

**4.** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (O'tbosarov), hududiy boshqarmalar, Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha mas'ul xodimlari lavozimga tayinlangan va kelgusida ishga qabul qilinadigan xodimlarni mazkur buyruq bilan tasdiqlangan ichki idoraviy hujjatlar bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirib borilishini ta'minlasin.

**5.** Axborot tahlil, ijro intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (Karimov) ushbu buyruq nuxsalarini Inspeksiyaning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markaziga yetkazilishi ta'minlasin.

**6.** Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan "O'zagroinspeksiya"ning 2021-yil 12-fevraldagi C-4-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

**7.** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (O'tbosarov), mazkur buyruqning bajarilishini ta'minlasin va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorakda Inspeksiya boshlig'iga axborot kiritib borsin.

**8.** Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.



**Boshliq**

Toshkent sh.

**A.Vaxabov**